

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

UMUMLISONIY VA INDIVIDUAL-MUALLIFLIK EPITETLARINING KORPUS ASOSIDAGI TAVSIFI (USMON AZIM IJODI MISOLIDA)

Umirova Svetlana

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, dotsent.

e-mail: umirova.s.m06@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1616-3969>

Annotatsiya.

Mazkur tadqiqotda epitetlarni umumlisoniy va individual-mualliflik guruhlariga ajratishda birlikning korpusdagi takroriyliigi, komponentlarning semantik mosligi, birikmaning odatiylik darajasi hamda kontekstda yuzaga kelgan obrazli mazmuni asosiy mezon sifatida qaraladi. Bunda kam chastotali birlikni avtomatik ravishda individual epitet deb baholash maqsadga muvofiq emas. Birikmaning faqat bir marta qo'llanishi uning muallif tomonidan yaratilganligini isbotlamaydi. Shu sababli chastota ko'rsatkichi semantik va lingvopoetik tahlil natijalari bilan birgalikda talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: epitet, umumlisoniy epitetlar, individual epitetlar, mualliflik epitetlari, til korpusi, mualliflik korpusi.

КОРПУСНОЕ ОПИСАНИЕ ОБЩЕЯЗЫКОВЫХ И ИНДИВИДУАЛЬНО-АВТОРСКИХ ЭПИТЕТОВ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА УСМОНА АЗИМА)

Умирова Светлана

Институт языков и культуры народов Центральной Азии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова, доцент.

Аннотация.

В данном исследовании основными критериями разграничения эпитетов на общезыковые и индивидуально-авторские являются частотность единицы в корпусе, семантическая сочетаемость компонентов, степень узуальности сочетания, а также образное содержание, возникающее в контексте. При этом нецелесообразно автоматически относить низкочастотную единицу к индивидуально-авторским эпитетам. Однократное употребление сочетания само по себе не доказывает его авторского происхождения. Поэтому показатели частотности интерпретируются в совокупности с результатами семантического и лингвопоэтического анализа.

Ключевые слова: эпитет, общезыковые эпитеты, индивидуальные эпитеты, авторские эпитеты, языковой корпус, авторский корпус.

A CORPUS-BASED DESCRIPTION OF COMMON-LANGUAGE AND INDIVIDUAL AUTHORIAL EPITHETS (BASED ON THE WORKS OF USMON AZIM)

Umirova Svetlana

Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia, Sharof Rashidov Samarkand State University, Associate Professor.

Abstract.

This study identifies corpus frequency, semantic compatibility of components, the degree of conventionality of a word combination, and its figurative meaning in context as the main criteria for distinguishing between common-language and individual authorial epithets. A low-frequency unit, however, should not automatically be classified as an individual authorial epithet. The occurrence of a word combination only once does not in itself prove that it was created by the author. Therefore, frequency indicators are interpreted in conjunction with the results of semantic and linguopoetic analysis.

Keywords: epithet, common-language epithets, individual epithets, authorial epithets, language corpus, author corpus.

Kirish. Jahon tilshunosligida epitetlar, asosan, uslubiyat, lingvopoetika, badiiy nutq nazariyasi doirasida keng o'rganilgan bo'lsa-da, maxsus epitet lug'atlari soni nisbatan cheklangan. Ayrim tillarda epitetlarni jamlash, tavsiflash va tasniflashga qaratilgan lug'atlar, qo'llanmalar hamda korpusga asoslangan tadqiqotlar mavjud. Ular epitet lug'atlarining shakllanishi uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Rus tilshunosligida epitet masalasi ancha chuqur va tizimli o'rganilgan. Epitet stilistik vosita sifatida nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda epitetlar maxsus ro'yxat va lug'atlar ko'rinishida jamlangan. Ayniqsa, adabiy til, poeziya va folklor materiallari asosida tuzilgan lug'atlarda epitetlar alohida guruh sifatida berilgan. Rus tilshunosligida epitetlarning semantik, funksional va obrazli xususiyatlarini ochib beruvchi lug'at-spravochnik [1. 225], onlayn lug'atlar [5] mavjud.

O'zbek tilshunosligida ham epitet nazariyasi izchil o'rganilgan. "O'zbek tilida sifatlash" maqolasida sifatlashning

grammatik va uslubiy tabiati yoritilgan bo'lsa [2. 7–39], "Epitet va ularning turlari" maqolasida epitetlarning tasnifi, semantik xususiyatlari hamda badiiy matndagi vazifalari tahlil qilingan [4. 25–27]. Keyingi yillarda epitetlar lingvomadaniy va folklor nuqtayi nazaridan ham tadqiq etila boshladi. Sh. Imomnazarova o'zbek xalq olqishlaridagi epitetlarning milliy-estetik xususiyatlarini ko'rsatgan bo'lsa [1], N. Nazarova xalq og'zaki ijodidagi epitetlarni xalqning madaniy qadriyatlarini va poetik tafakkurining ifodasi sifatida tavsiflaydi [3].

ASOSIY QISM. Epitetlar tizimini muallif idiositili nuqtayi nazaridan tadqiq etishda til uchun xos bo'lgan obrazli birikmalar bilan muallifning individual badiiy tafakkuri mahsuli sifatida yuzaga kelgan birliklarni farqlash muhim. Chunki badiiy matnda qo'llangan har qanday epitet individual-mualliflik xususiyatiga ega bo'lavermaydi. Ayrim epitetik birikmalar tilda barqarorlashgan, adabiy nutqda keng qo'llanadigan obrazli modellarni asosida shakllansa, boshqa birliklarda so'zlarning noodatiy semantik bog'lanishi natijasida muallifga xos yangi poetik mazmun yuzaga keladi.

Achchiq haqiqat, og'ir dard, sovuq shamol, qora tun singari birikmalarda epitet va aniqlanmish o'rtasidagi semantik munosabat adabiy tilda keng kuzatiladigan obrazli modellarga mos keladi. Bunday birliklar muallif matnida muayyan uslubiy vazifa bajarsa-da, ularning obraz hosil qilish modeli **umumlisoniy poetik tajribada** mavjud; shu jihatdan ular umumlisoniy epitetlar sifatida tavsiflanadi.

Individual-mualliflik epitetlarida esa komponentlar o'rtasida odatiy leksik-semantik bog'lanish buziladi yoki yangi mazmuniy munosabat yuzaga keladi. *Ajdarho dunyo, yig'loq dunyo, og'ir she'r, gullagan yurak, tubsiz yurak* kabi birliklarda epitetning aniqlanmish bilan bog'lanishi noodatiy semantik ko'chishga asoslangan. Bunday birikmalarda tasvir obyektiga uning tabiiy yoki odatiy belgisi emas, boshqa konseptual sohaga mansub xususiyat yuklanadi.

Individual epitetning muhim belgilaridan biri semantik masofadir. Semantik masofa epitetning lug'aviy ma'nosi mansub bo'lgan semantik maydon bilan aniqlanmish ifodalagan tushuncha maydoni o'rtasidagi farqni anglatadi. Masalan, *gullagan yurak* birikmasida *gullamoq* o'simlik dunyosiga xos jarayonni, *yurak* esa inson tana a'zosini va poetik kontekstda ruhiy markazni ifodalaydi. O'simlik jarayoni – inson ruhiyati yo'nalishidagi semantik masofa birikmaning obrazlilik darajasini kuchaytiradi.

Shuningdek, *yig'loq dunyo* birikmasida insonga xos hissiy belgi mavhum-falsafiy tushunchaga ko'chiriladi. *Ajdarho dunyo* birikmasida esa mifologik mavjudotning xavflilik va dahshatlilik xususiyati dunyo obrazining poetik tavsifiga aylantiriladi. Bunday holatlarda epitet faqat belgini ifodalovchi aniqlovchi emas, balki ikki semantik maydon o'rtasida yangi assotsiativ aloqa hosil qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval. Umumlisoniy va individual-mualliflik epitetlarini farqlash mezonlari

Mezon	Umumlisoniy epitet	Individual-mualliflik epiteti
Birikish odatiyli	Tilda keng kuzatiladi	Noodatiy birikuvga asoslanadi
Semantik moslik	Komponentlar semantik jihatdan yaqin	Semantik maydonlar o'rtasida masofa mavjud
Obraz yangiligi	Barqarorlashgan obraz	Yangi poetik assotsiatsiya
Kontekstga bog'liqlik	Nisbatan past	Yuqori
Talqin zarurati	Ma'no bevosita anglashiladi	Keng kontekst asosida talqin qilinadi
Namuna	achchiq haqiqat, og'ir dard	ajdarho dunyo, yig'loq dunyo

Mazkur mezonlar individual-mualliflik epitetini faqat intuitiv tarzda belgilashdan ko'ra, uning korpus va semantik xususiyatlarini birgalikda hisobga olish imkonini beradi. Epitetning semantik tegi bilan aniqlanmishning tegi o'rtasidagi farq qancha katta bo'lsa, birikmada semantik ko'chish ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi. Biroq semantik masofa bilan obrazlilik o'rtasida mutlaq tenglik mavjud emas. Ayrim uzoq semantik maydonlarning birikishi umumtil metaforik modeli sifatida allaqachon barqarorlashgan bo'lishi mumkin. Masalan, *og'ir dard* birikmasida vazn – ruhiy/jismoniy holat ko'chishi mavjud bo'lsa-da, mazkur model tilda faol qo'llanadi. Demak, individual epitetni aniqlashda semantik masofa bilan birga birikmaning umumtil qo'llanish darajasini ham hisobga olish talab etiladi.

Shu asosda individual-mualliflik epitetlarini aniqlashning korpus modeli chastota – kollokatsion odatiylik – semantik masofa – kontekstual obrazlilik ketma-ketligida tashkil etiladi. Dastlab epitetik birikmaning mualliflik korpusidagi chastotasi aniqlanadi. Keyin komponentlarning odatiy birikuv modeli tekshiriladi. Semantik teglar orqali epitet va aniqlanmish o'rtasidagi mazmuniy munosabat tavsiflanadi va yakuniy bosqichda birlikning kontekstda yaratgan poetik obrazi lingvostilistik jihatdan baholanadi.

Mazkur tahlil korpusdagi individual epitetlarni ikki guruhga ajratish imkonini beradi. Birinchi guruhni individual epitetik birliklar – muayyan kontekstda yuzaga kelgan noyob birikmalar tashkil etadi. Ikkinchi guruhga esa individual epitetik modellarni kiradi. Bunda alohida birikma emas, muallif tomonidan muntazam qo'llanadigan semantik ko'chish usuli idiositil belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, *gullagan yurak* alohida individual epitetik birlik sifatida qaralishi mumkin. Ammo korpusda o'simlik dunyosiga xos *gullash, so'lish, ildiz otish, yaproq yozish* kabi jarayonlar inson ruhiyati yoki mavhum tushunchalarni tavsiflashda muntazam qo'llansa, o'simlik jarayoni – ruhiy holat munosabati muallifga xos individual epitetik model sifatida baholanadi. Shuningdek, *sovuq nigoh, sovuq g'azab, sovuq dunyo* birliklari harorat – ruhiy/aksiologik baho, *og'ir yurak, og'ir sukunat, og'ir taqdir* birikmalari esa vazn – ruhiy/falsafiy holat modelining turli voqelanishlari hisoblanadi.

Demak, muallif idiositilini aniqlashda noyob epitetlarning oddiy ro'yxatini tuzish yetarli emas. Muhim jihat turli

leksik birliklarda takrorlanadigan obraz yaratish mexanizmini aniqlashdan iborat. Korpus tahlili alohida epitettlardan umumiy semantik modelga o'tish imkonini beradi va shu orqali individual uslubning barqaror belgilarini ajratishga xizmat qiladi.

Dominant epitetik modellarni aniqlash. Usmon Azim mualliflik korpusida epitettlarning takroriy semantik munosabatlarini aniqlash muallif poetik tafakkurida faol bo'lgan obraz yaratish yo'nalishlarini belgilaydi. Mazkur tadqiqotda korpusning turli matnlarida va turli aniqlanmishlar bilan muntazam voqelanuvchi semantik ko'chish shakli dominant epitetik model sifatida talqin qilinadi.

Dominant modelni belgilashda uning faqat chastotasi emas, kollokatsion diapazoni va turli obrazlar tizimidagi faolligi ham hisobga olinadi. Masalan, *og'ir* epitetining ko'plab aniqlanmishlar bilan birikishi vazn – mavhum holat modelining mahsuldorligini ko'rsatadi. *Sovuq* epitetining tabiat hodisalaridan inson nigohi, g'azab, dard va dunyo obrazigacha bo'lgan birliklar bilan bog'lanishi esa harorat – hissiy – aksiologik baho modelining keng semantik qamrovini namoyon etadi.

2-jadval. Usmon Azim ijodidagi dominant epitetik modellar

Epitetik model	Semantik yo'nalish	Misollar
vazn – ruhiy holat	Fizik belgidan kechinmaga	og'ir yurak, og'ir g'am
harorat – munosabat	Haroratdan hissiy bahoga	sovuq nigoh, sovuq g'azab
butunlik – ruhiyat	Predmet holatidan ichki kechinmaga	siniq yurak, vayron ko'ngil
makon – ichki olam	Fazoviy belgidan ruhiy chuqurlikka	tubsiz yurak, tubsiz ko'ngil
o'simlik – ruhiyat	Tabiiy jarayondan hissiy holatga	gullagan yurak
yorug'lik – ijobiy baho	Optik belgidan aksiologik mazmunga	nurli ko'ngil, nurli dunyo
inson – mavhum tushuncha	Insoniy belgidan abstrakt obrazga	yig'loq dunyo, telba dunyo
mifologik obraz – mavjudlik	Mifologik belgidan falsafiy obrazga	ajdarho dunyo

Jadvalda ajratilgan modellar Usmon Azim epitetikasida konkret va hissiy idrok qilinadigan belgilar mavhum tushunchalarni tasvirlashda faol qo'llanishini ko'rsatadi. Vazn, harorat, makon, predmet butunligi, o'simlik jarayoni va yorug'lik kabi sezgi orqali idrok etiladigan belgilar inson ruhiyati, taqdir, dunyo va boshqa abstrakt tushunchalarning poetik tavsifiga ko'chiriladi. Shu tariqa mavhum mazmun konkret obraz orqali idrok etiladigan shaklga keltiriladi.

Korpus asosida aniqlangan mazkur modellar Usmon Azim epitetikasining muhim xususiyati konkret belgilar vositasida mavhum va ruhiy mazmunni obrazlashtirish ekanini ko'rsatadi. Bu holat alohida epitettlarda emas, turli leksik birliklar va poetik kontekstlarda takrorlanishi sababli muallif idiositilining barqaror semantik mexanizmlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Shu jihatdan epitettlar lug'ati faqat ma'lumotnoma vazifasini bajarmaydi. Uning korpus bilan bog'langan strukturalari epitetning chastotasi, birikuv doirasi, epitetik paradigma tarkibidagi o'rni va semantik ko'chish yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Natijada, lug'at – korpus ma'lumoti – kollokatsion tahlil – semantik model – idiositil belgisi ketma-ketligida yangi tahlil mexanizmi shakllanadi.

Epitetlarning janriy va ijodiy davrlar bo'yicha taqsimoti. Epitetlarning korpus asosidagi tadqiqida ularning umumiy tarkibi va semantik xususiyatlarini aniqlash bilan birga, janrlar hamda ijodiy davrlar kesimidagi qo'llanishini kuzatish ham ahamiyatli. Muallifning epitet tanlovi matnning janriy tabiati, tasvir obyekti va kommunikativ-estetik vazifasiga ko'ra farqlanishi mumkin. Shu sababli epitetik birliklarning metadata parametrlari bilan bog'langan holda tahlil qilinishi Usmon Azim uslubidagi ichki farqlarni aniqlash imkonini beradi.

She'riy matnlarda epitet, avvalo, obrazni ixcham shaklda individuallashtirish va hissiy mazmunni kuchaytirishga xizmat qiladi. *Og'ir yurak, sovuq nigoh, tubsiz ko'ngil, yoniq yurak* tipidagi birliklarda aniqlanmishga biriktirilgan belgi keng ruhiy holatni qisqa poetik konstruksiya orqali ifodalaydi. Bunday epitettlarda semantik ko'chish va hissiy intensivlikning yuqoriligi she'riy nutqning obrazli zichligi bilan bog'liq.

Dramatik matnlarda esa epitettlarning personaj nutqi va konflikt bilan aloqasi kuchayadi. Epitet orqali personajning boshqa obrazga, voqelikka yoki muayyan hodisaga munosabati ifodalanadi. Shu jihatdan dramatik nutqdagi epitettlarni muallif bahosi bilan to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirish mumkin emas. Ularning aksiologik xususiyati so'zlovchi personaj, dialogik vaziyat va dramatik kontekst bilan bog'liq holda talqin qilinishi zarur.

Doston va balladalarda epitettlarning voqea, makon va obraz yaratishdagi vazifasi kengayadi. Mazkur janrlarda tabiat, tarixiy voqelik va inson ruhiyatiga mansub belgilar o'zaro yaqinlashib, epik tasvir bilan lirik baholashni birlashtiradi. Natijada, bir epitet muayyan predmetni tavsiflash bilan birga, asarning umumiy hissiy fonini shakllantiruvchi birlik vazifasini ham bajarishi mumkin.

Janrlar kesimidagi qiyosiy tahlil epitetning janriy xususiyatini aniqlab beradi. Epitetning janriy **xususiyati** deganda muayyan birlik yoki epitetik modelning korpus janrlari bo'yicha taqsimlanish xususiyati tushuniladi. Masalan, **harorat – ruhiy holat** modeli she'riy matnlarda yuqori faollik ko'rsatib, dramatik asarlarda nisbatan kam uchrasa, ushbu modelni muallif lirikasiga xos obraz yaratish mexanizmlaridan biri sifatida baholash mumkin.

3-jadval. Epitetlarni janrlar kesimida tahlil qilish parametrlari

Tahlil parametri	Aniqlanadigan xususiyat
------------------	-------------------------

Epitet chastotasi	Janrdagi qo'llanish faolligi
Epitetlar xilma-xilligi	Epitetik leksikon ko'lami
Kollokatsion diapazon	Birikuv imkoniyatlari
Epitetik paradigma	Dominant tasvir obyektlari
Aksiologik qutb	Janrga xos baholash yo'nalishi
Semantik ko'chish	Faol obraz yaratish modellari

XULOSA. Epitetlarni ijodiy davrlar bo'yicha tahlil qilish esa muallif poetik tafakkuridagi o'zgarishlarni kuzatishga xizmat qiladi. Bunda bir xil epitetning turli davrlardagi oddiy chastotasini qiyoslash yetarli emas. Epitetik leksikonning yangilanishi, kollokatsion diapazonning kengayishi yoki torayishi, yangi epitetik paradigmalarning yuzaga kelishi va semantik ko'chish modellaridagi o'zgarishlar birgalikda tahlil qilinishi lozim. Masalan, dastlabki ijodiy davrda muayyan epitet asosan tabiat obyektlari bilan birikib, keyingi bosqichlarda ruhiy yoki falsafiy tushunchalarni tavsiflashga o'tsa, bu holat epitet semantikasining diaxron kengayishi sifatida baholanishi mumkin. Shuningdek, dastlab alohida poetik birlik sifatida uchragan modelning keyingi davrlarda turli aniqlanmishlar bilan muntazam qo'llanishi uning muallif idiositilida barqarorlashganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, epitetlarning diaxron tadqiqida epitetik modelning **shakllanishi – faollashuvi – barqarorlashuvi – transformatsiyasi** kabi bosqichlarni ajratish mumkin. Mazkur bosqichlar qat'iy xronologik chegara sifatida emas, korpus ma'lumotlari asosida aniqlanadigan uslubiy dinamika ko'rsatkichlari sifatida qaraladi. Bunda korpusning **creativePeriod** va **year** metadata maydonlari epitetik birliklar bilan bog'lanib, ularning vaqt bo'yicha taqsimotini avtomatik aniqlaydi.

Epitetning davriy profilini shakllantirishda normallashtirilgan chastotadan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki ijodiy davrlarga mansub matnlarning hajmi o'zaro teng bo'lmasligi mumkin. Har 10 ming token hisobiga epitet yoki epitetik modelning qo'llanish ko'rsatkichini aniqlash davrlar o'rtasidagi hajmiy farq ta'sirini kamaytiradi. Shu asosda muayyan epitetning real faollashuvi yoki pasayishi haqida nisbatan obyektiv xulosa chiqariladi.

Janriy va diaxron tahlilni birlashtirish yanada aniq natijalarni yuzaga keltiradi. Masalan, epitetik modelning keyingi ijodiy davrda faollashishi muallif uslubidagi umumiy o'zgarish bilan emas, aynan shu davrda muayyan janrga mansub asarlar ulushining ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli **epithet + genre + creativePeriod** parametrlarining uyg'unlashgan tahlili chastota o'zgarishlarining sababini to'g'ri talqin qilishda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Горбачевич К. С. Словарь эпитетов русского литературного языка. – Санкт-Петербург: Норинт, 2002. – 225 с.
2. Mukarramov M. O'zbek tilida sifatlash // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973. – № 6. – B. 37–39.
3. Nazarova N. B. Xalq og'zaki ijodida epitetlar // Science and Education. – 2023. – № 7. <https://cyberleninka.ru/article/n/hal-o-zaki-izhodida-epitetlar>
4. Xo'jayeva D. Epitet va ularning turlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1995. – № 5–6. – B. 25–27.
5. Slovaronline. Epitetlar lug'ati. <https://epithet.slovaronline.com/>